

OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Majidova Gulhayo Abdirazzoq qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

E-mail: majidovagulhayo96@gmail.com

Mamatkarimov Kamoliddin Ziyodulla o'g'li

tayanch doktorant, BIMM

E-mail: k-beck@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar orqali samarali darslar tashkil qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyatini nazariy asosda yoritib fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, dars, internet, farmon, qaror, ta'lim tizimi zamonaviy ta'lim.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на теоретической основе рассматриваются организация эффективных занятий с помощью цифровых технологий в высших учебных заведениях, актуальные аспекты и важность использования цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровые технологии, урок, интернет, указ, решение, система образования, современное образование.

ABSTRACT

In this article, the organization of effective classes through digital technologies in higher education institutions, the actual aspects and importance of using digital technologies are discussed on a theoretical basis.

Keywords: digital technology, lesson, internet, decree, decision, education system, modern education.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatida iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqish, shu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etish masalasi qo'yildi.

Murojaatnomani tinglar ekanmiz, mazkur dastur bir qarashda iqtisodiyot sohasiga taalluqli ekanligi kunday ravshan bo‘lib tursa ham, ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan biz – o‘qituvchilar zimmasiga ham ulkan vazifalar yuklanayotganligini his qilmoqdamiz. Chunki mamlakatning iqtisodiy hayoti, barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish bo‘yicha islohotlar va ilg‘or texnologiyalar, tabiiyki, ta‘lim sohasini chetlab o‘tishi mumkin emas. Aksincha raqamli iqtisodiyot asosini kadrlar va ta‘lim tashkil qiladi. Shunday ekan, raqamli O‘zbekiston kelajagi hozirda maktab partasida o‘tirgan talabalarimiz, yoshlarimiz qo‘lidadir. Albatta, ular raqamli iqtisodiyotni boshqara oladigan, taraqqiy ettiradigan darajada sifatli va zamonaviy bilimga ega bo‘lsa, kelajagimiz buyuk bo‘ladi, raqamli O‘zbekiston xavfsizligi ta‘minlanadi. Nazarimda, bunda nafaqat aniq va tabiiy fanlar, balki barcha fanlar hamda ular uchun “ostona” sanaladigan ona tili ta‘limiga ham e‘tibor kuchaytirish taqozo qilinadi. Vaholanki, informatika tilidan tashqari, ham xorijiy tillardan, ham ona tilidan savodxon dasturchilar tayyorlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, davlat boshqaruviga, davlat va jamiyatning barcha sohalariga savodli, layoqatli kadrlar tayyorlashdek zalvorli vazifa to‘la ado etilmayotganligi sir emas.

Globalashuv asrida davlatning innovatsion imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi.

“Ta‘lim jarayonini, oliy ta‘limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta‘lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish zarur”.

Ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘z-o‘zidan insonni rivojlantirmasdan, faoliyatli shaklga ega bo‘lganida rivojlantira oladi. Talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi uchun uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish zarur. O‘quv materialini sust idrok etish jarayonida rivojlanish sodir bo‘lmaydi. Masalan: talaba kitobni qanchalik ko‘p varaqlamasin, o‘zi raqamlarni eslab qolmasa, ulardan misol tuzishni o‘rgana olmaydi, unda hech qanday misol yechish ko‘nikmasi shakllanmaydi. Talabaning o‘z harakatlari kelajakda uning qobiliyati shakllanishining asosi bo‘ladi. Shunday ekan ta‘limning vazifasi talabalarni harakatlarga undovchi vaziyatlarni tashkil etishdan iborat. Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchilar har bir talaba turli vaziyatlarda topshiriqlarni to‘g‘ri yecha olishda individual vositalari va usullarini shakllantirishga yordam beruvchi maxsus o‘quv sharoitlarini yaratishlari zarur. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim tizimining oldiga qo‘ygan natijalarga erishish texnologiyasining muhim masalalaridan biri sanaladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining diqqatlari tarqoq bo'lib, ular ko'p holatda diqqat–e'tiborlarini bir holatdan ikkinchisiga qaratishlari qiyin. Ammo talabanning o'ziga doskada har qanday obyekt, elektron shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini o'zgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan: ma'ruza va amaliy fanlarda dars o'tishda kompyuter vositalari, proyektor, elektron doskadan foydalanilishi bilan talabalarning darsga qiziqishlari ortadi hamda ta'lim jarayonining faolligi oshadi. Ma'lumot hajmining ko'pligi talabalarga og'irlik qilmaydi. Zero, jarayon yangi pedagogik texnologiyalarda foydalanib o'tilsa, faol o'qishga imkon beradi. Elektron doska - oliy ta'lim muassasalari ta'limi jarayonini ko'rgazmali, rang-barang, qiziqarli qiluvchi samarali vosita. Ta'lim jarayonini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar juda muhim hisoblanadi.

Axborot kommunikatsion qurilmalar bilan jihozlangan o'quv xonasida talabalar uchun ta'lim jarayonini tashkil etish hamda olib elektron qiziqarli va samarali bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar - foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig'ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy texnik vositalar to'plamidan iborat.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, o'qitishning samaradorligini taminlash, dars jarayonlariga oid turli ilyutratsiya, video roliklar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, multimedia maxsulotlari, kompiyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo'llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
3. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.